



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TOSHKENT SHAHRI HOKIMINING QARORI

2025-yil 30-yanvar

54-14-0-Q/25

Toshkent shahar hokimligi

Toshkent shahridagi davlat ko‘chmas mulkidan foydalanganlik uchun 2025-yilda qo‘llaniladigan ijara to‘lovining eng kam stavkalarini hamda kichik sanoat zonalarida tadbirkorlik subyektlari tomonidan to‘lanadigan ijara to‘lovi miqdorlarini belgilash haqida

“Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 25-moddasiga asosan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat mulki obyektlaridan samarali foydalanish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2019-yil 19-fevraldagi PF–5666-son Farmoni hamda “Toshkent shahrida davlat va tadbirkorlik subyektlari o‘rtasida o‘zaro manfaatli hamkorlik asosida investitsiya loyihalarini amalga oshirish va shahar infratuzilmasini yaxshilash bo‘yicha huquqiy eksperimentni o‘tkazish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2023-yil 26-iyuldagi PQ–236-son qaroriga muvofiq, Vazirlar Mahkamasining “Davlat mulkini ijaraga berish tartibini yanada takomillashtirish to‘g‘risida” 2023-yil 14-dekabrdagi 660-son qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida

Q A R O R Q I L A M A N:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Toshkent shahrida davlat va tadbirkorlik subyektlari o‘rtasida o‘zaro manfaatli hamkorlik asosida investitsiya loyihalarini amalga oshirish va shahar infratuzilmasini yaxshilash bo‘yicha huquqiy eksperimentni o‘tkazish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2023-yil 26-iyuldagi PQ–236-son qarorining 2-bandi v-kichik bandiga asosan Toshkent shahrida joylashgan davlat ko‘chmas mulkidan foydalanganlik uchun ijara to‘lovining eng kam stavkalari hamda kichik sanoat zonalarida tadbirkorlik subyektlari tomonidan to‘lanadigan ijara to‘lovi miqdorlari har yili 31-dekabrgacha Toshkent shahri hokimligi tomonidan bozor tamoyillari asosida belgilanishi, bunda ijara to‘lovlarining miqdori oldingi yil uchun

belgilangan minimal ijara summasining 1,3 baravaridan oshmasligi belgilanganligi inobatga olinsin.

2. Quyidagilar:

Toshkent shahridagi davlat ko'chmas mulkidan foydalanganlik uchun 2025-yilda qo'llaniladigan ijara to'lovining eng kam stavkalari 1-ilovaga muvofiq;

Toshkent shahridagi kichik sanoat zonalarida tadbirkorlik subyektlari tomonidan 2025-yilda foydalanganlik uchun to'lanadigan ijara to'lovi miqdorlari 2-ilovaga muvofiq;

ijara to'lovini (ijara to'lovining tayanch stavkasini) hisoblab chiqish tartibi va qo'llanadigan koeffitsiyentlar 3-ilovaga muvofiq;

Toshkent shahrining markaziy qatnov ko'chalari ro'yxati 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Davlat aktivlarini boshqarish agentligi huzuridagi Davlat mulki obyektlaridan samarali foydalanish markazi Toshkent shahar hududiy boshqarmasi (I.Kadirov) davlat mulkini ijaraga berish yuzasidan davlat mulkini balansda saqlovchi korxonalar, tashkilotlar va muassasalar bilan avval tuzilgan shartnomalarni xatlovdan o'tkazish, ularni hisobga qo'yish va shartnomalarni belgilangan tartibda qayta rasmiylashtirishni ta'minlasin.

4. Quyidagilar:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Davlat mulkini ijaraga berish tartibini yanada takomillashtirish to'g'risida" 2023-yil 14-dekabrda 660-son qaroriga muvofiq byudjetdan moliyalashtiriladigan davlat muassasalari va ularning hududiy va tuman (shahar) bo'linmalari, shuningdek, xalqaro tashkilotlar vakolatxonalari, qo'shma loyihalarni amalga oshirish guruhlarini davlat mulki bo'lgan binolar va inshootlarga tekin foydalanish huquqi asosida joylashtirilishi;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat mulki obyektlaridan samarali foydalanish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2019-yil 19-fevraldagi PF-5666-son Farmoniga asosan davlat ko'chmas mulk obyektlarini ijaraga berish bo'yicha savdolar "E-IJRO AUKSION" elektron savdo maydonchasi orqali amalga oshirilishi belgilanganligi inobatga olinsin.

5. Belgilansinki, davlat mulkini balansida saqlovchilarning mansabdor shaxslari ularning tasarrufida bo'lgan foydalanilmayotgan davlat mulki to'g'risidagi ma'lumotlarni Davlat aktivlarini boshqarish agentligi huzuridagi Davlat mulki obyektlaridan samarali foydalanish markazi Toshkent shahar hududiy boshqarmasiga o'z vaqtida, to'liq va ishonchli berilishi uchun shaxsan javob beradilar.

Balansda saqlovchi tasarrufidagi davlat mulkini xatlovdan o'tkazishga va foydalanilmasdan bo'sh turgan va/yoki maqsadsiz, samarasiz foydalanilayotgan davlat mulki haqida har chorak yakuni bilan hisobot oyidan keyingi oyning 10-sanasigacha ijaraga beruvchiga bu mulkning joylashgan joyi, miqdori, tarkibi va boshqa umumiy tavsiflari ko'rsatilgan ma'lumotlarni taqdim etishi shart.

Balansda saqlovchining yuqori turuvchi tashkilotlari ushbu ma'lumotlar Markazning tegishli hududiy boshqarmasiga belgilangan tartib va muddatlarda taqdim etilishi ustidan idoraviy nazoratni ta'minlaydi.

6. Toshkent shahar hokimligi Matbuot xizmati (G.Kasimova) mazkur qaror rasmiy e'lon qilinishi va www.toshkent.uz veb-saytiga joylashtirilishini ta'minlasin.

7. Toshkent shahar hokimining "Toshkent shahridagi davlat ko'chmas mulkidan foydalanganlik uchun 2024-yilda qo'llaniladigan ijara to'lovining eng kam stavkalari haqida" 2024-yil 14-fevraldagi 99-14-0-Q/24-son qarori (7-bandidan tashqari) o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

8. Ushbu qaror e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

9. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish Toshkent shahar hokimining birinchi o'rinbosari B.Xaydarov zimmasiga yuklansin.

Toshkent shahar hokimi



Sh.Umurzakov

Toshkent shahar hokimining
2025-yil 30-yanvardagi
54-14-0-Q/25-son qaroriga
1-ilova

**Toshkent shahridagi davlat ko'chmas mulkidan foydalanganlik uchun
2025-yilda qo'llaniladigan ijara to'lovining eng kam stavkalari
(iqtisodiy sohalar va tarmoqlar bo'yicha)**

t/r	Ijaraga beriladigan maydonlardan foydalanish maqsadi	2025-yilda 1 kv.m. maydon uchun yillik eng kam ijara to'lovi stavkalari (QQS bilan birga)
Ishlab chiqarish		
1	Ishlab chiqarish turlari bo'yicha (kimyo, neft, mashinasozlik, hisoblash texnikalari, traktorsozlik, maishiy anjomlar, sanitariya, metall, tamaki, elektronika va santexnika mahsulotlari va jihozlari)	26 806
2	Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish	86 970
3	Elektr energiya ishlab chiqarish	24 500
Qurilish sanoati		
4	Qurilish mahsulotlari sanoati (asfalt, bitum, tosh saralash, shlakoblok, penablok, gazoblok, suvoq qorishmalari, gipsokarton, tunikafon, shifer, sement, senvich panel ishlab chiqarish va yog'ochni qayta ishlash)	26 806
5	Deraza, eshiklar va mebel ishlab chiqarish sanoati (yog'ochdan)	86 970
6	Deraza, eshik va mebellar ishlab chiqarish (plastik, alyumin va MDFdan)	114 660
Engil sanoat		
7	Yengil sanoat turlari bo'yicha (to'qimachilik, tikuvchilik, charm, mo'yna, poyabzal, sellyuloza-qog'oz sanoati)	26 806
Oziq-ovqat sanoati		
8	Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish (yog', go'sht, baliq, ichimlik, un, qandolat mahsulotlari hamda omuxta-yem sanoati)	26 806
9	Chorva (qo'y) mollarini so'yish va sotish (jumladan kushxona)	98 700
10	Sut mahsulotlari sanoati	53 625

11	Non va qolipli (bulka) non mahsulotlari ishlab chiqarish	89 895
Qishloq xo'jaligi		
12	O'simlikshunoslik (o'rmon xo'jaligi va bog'lar) 1 gektar yer maydoni uchun	17 593 030
13	Issiqxona xo'jaligi 1 gektar yer maydoni uchun	23 101 000
14	Chorva va parranda yetishtirish (boqish)	19 900
15	Baliqchilik (shu jumladan sun'iy maydon) 1 gektar uchun	19 104 400
16	Asalarichilik 1 gektar yer maydoni uchun	10 526 308
Transport va aloqa		
17	Transport infratuzilmalari (avtopark, taksopark, avtomobil to'xtash joylari va garaj)	70 096
18	Transport infratuzilmalari (jarima maydonlari)	31 590
19	Avtomobillarni yuvish	103 090
20	Avtomobillarga yoqilg'i quyish (benzin, dizel)	98 700
21	Avtomobillarga yoqilg'i quyish (gaz qo'yish shoxobchalari)	107 835
22	Elektromobillarni quvvatlash shoxobchasi	46 930
23	Yengil avtomashinalar va boshqa turdagi transport vositalarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish	98 700
24	Vulkanizatsiya, payvandlash, chilangarlik ishlarining barcha turlari	61 500
25	Aholi buyurtmasiga asosan yuk tashish va transport xizmatlari	64 285
26	Pochta va kuryerlik aloqasi	64 200
27	Elektr-simli aloqa (WIFI Router)	70 096
28	Radio, uyali aloqa va peyjer aloqasi (inshootlarni hisobga olgan holda hudud doirasida)	227 331
Savdo va umumiy ovqatlanish		
29	Ulgurji savdo	107 835
30	Mahsulotlarni (xizmatlarni) qismlab savdo faoliyatini amalga oshiruvchi ulgurji savdo bozorlaridagi savdo do'konlari	259 545

31	Chakana savdo	161 837
32	Sotuvchisiz elektron uskunalar orqali chakana savdoni tashkil etish	159 800
33	Umumiy ovqatlanish (Tabiiy va sun'iy suv havzalari hamda daryo bo'ylarida baliq mahsulotlari va taomlari savdosi, fast-fud)	107 835
34	Kitob do'konlari	10 270
35	Lombardlar	130 260
Xizmat ko'rsatish		
36	Xizmat ko'rsatish turlari bo'yicha (xo'jalik buyumlarini ijaraga berish, nusxa ko'chirish, ko'chmas mulklar bilan bog'liq xizmatlar, reklama va ko'rgazmalar, geodeziya va gidrometeorologiya)	110 000
37	Kompyuter o'yinlarini tashkil etish	177 866
38	Mehmonxona xo'jaligi	118 573
39	Umumiy yashash joylari (shu jumladan talabalar va o'quvchilar turar joylari)	91 210
40	Maishiy xizmatning noishlab chiqarish turlari (veterinariya xizmatlari, kimyoviy tozalash va bo'yash, avtomobil, velosiped, samokatlarni ijaraga berish, paxta va jun tozalash va titish hamda ko'ngilochar qurilmalar joylashtirish)	59 800
41	Mashina va uskunalarni ta'mirlash	91 210
42	Loyiha, loyiha-qidiruv tashkilotlari	53 625
43	Poligrafiya sanoati	86 970
44	Qishloq xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar	58 900
45	Suv bo'yida xizmat ko'rsatish joylari (plyaj zonalar, baliq ovlash maskanlari, qayiqda suzish va suv sayohati va suv bo'yida turizm xizmatlarini tashkil etish)*	79 200
46	Quyosh panellari va suv isitish qurilmalar joylashtirish	19 900
47	Sartaroshxona, fotosalon, modalar atelyesi, poyabzallarni ta'mirlash ustaxonasi	86 671
48	Hammomlar	184 730
49	Saunalar va basseynlar	376 896

Turizm xizmatlari		
50	Madaniy meros obyektlarida hunarmandchilik turlari bo'yicha (misgarlik, zargarlik, o'ymakorlik, rassomchilik, do'ppido'zlik, telpak, cho'girma, chopon va x.k)	69 800
51	Hunarmandchilik turlari bo'yicha (yodgorlik majmualari yasash, misgarlik, zargarlik, o'ymakorlik, rassomchilik, do'ppido'zlik, telpak, cho'girma, chopon va x.k)	59 800
52	Madaniy meros obyektlarida hostel va mehmonxona xizmatlarini tashkil etish	148 100
53	Madaniy meros obyektlarida savdo xizmatlarini ko'rsatish (esdalik buyumlari, sovg'alar, hunarmandchilik mahsulotlari va h.k)	158 400
54	Madaniy meros obyektlarida umumiy ovqatlanish shoxobchalari (restoran, kafe, fast-fud va h.k)	140 700
55	Madaniy ko'ngilochar markazlar (bilyard, o'yin avtomatlari, diskoteka va boshqalar)	108 500
Sog'liqni saqlash		
56	Davolash maskani (statsionar davolash)	79 200
57	Davolash maskani (shu jumladan laboratoriya, operatsion blok, stomatologiya, fizioterapiya)	149 500
58	Tibbiy asbob uskunalari o'rnatish (massajlovchi stullar, MRT, UZI, MSKT, rentgen va boshqa qurilmalari)	183 100
59	Tibbiyot sanoati (Tibbiyot buyumlari, asbob uskunalari va dori vositalari ishlab chiqarish)	184 100
60	Fitobar	37 420
61	Dorixonalar (optika, tibbiyot anjomlari va jihozlari sotish)	86 515
62	Protez-ortopediya moslamalarini tayyorlash va ta'mirlash	79 200
63	Ijtimoiy-dorixonalar	60 125
Sport maydonlari (stadionlar)		
64	Sport maydonlari (stadionlar)	34 300
65	Sport zallari (qo'l jangi, karate, kurash, sambo, erkin kurash va h.k)	29 000
66	Fitnes va yengil atletika zallari	189 000
Ta'lim		

67	Nodavlat ta'lim tashkilotlari (oliy, o'rta va maktabgacha tarbiya muassasalari)	64 200
68	Tayyorlov kurslari (IT, malaka oshirish va repitetorlik)	91 273
69	Oliy ta'lim muassasalarida umumiy ovqatlanish	53 911
70	O'rta maxsus ta'lim muassasalarida (jumladan maktablarda) umumiy ovqatlanish	43 700
71	Madaniyat va san'at	151 255
72	Ko'rgazmalar	72 254
73	Madaniy dam olishni tashkil etish (bog'lar, zooparklar, televideniyelar va radioeshittirishlar redaksiyalari)	69 500
74	Kinostudiyalar, ovoz yozish studiyalari	247 100
75	Fan va ilmiy xizmatlar ko'rsatish	49 000
76	Avtomaktablar	92 950
77	O'quv amaliyot poligonlari (test tajriba va sinov maydonlari)	38 100
Moliya-kredit faoliyati		
78	Moliya, kredit va pensiya ta'minoti (sug'urtalash va auditorlik faoliyatidan tashqari)	107 835
79	Auditorlik faoliyati	82 836
80	Buxgalteriya va soliq servis xizmatlari	168 100
81	Marketing tadqiqotlari, tijorat, moliya va boshqaruv faoliyatlari bo'yicha maslahatxonalar	107 835
82	Bankomatlar	1 621 438
83	Paynetlar	269 984
84	Turli xizmat turlari uchun to'lov qabul qilish maskanlari (kassalar)	269 984
85	Front-ofislar (banklar uchun)	105 200
86	Bank xizmatlari ofisi	148 100
87	Sug'urta faoliyati	107 835
88	Avia kassalar (shu jumladan temir yo'l, avtotransport va boshqalar)	173 030

Faoliyatning boshqa turlari		
91	Notarial xizmatlar	107 835
92	Sud va yuridik xizmat muassasalari hamda advokatlar kollegiyasi	75 933
93	Jamoat birlashmalari	26 806
94	Omborxonalar	107 835
95	Davlat korxona va muassasalari	53 534
96	Xususiy tashkilotlarga ofis	183 612
97	Arxiv xizmati	34 359
98	Tahririyat va nashriyotlar	60 125
99	Metallolom va ikkilamchi qog‘oz (latta) mahsulotlarini to‘plash joylari	60 125
100	Laboratoriyalar	53 534

Izoh: Davlat mulkini ijaraga berishda imtiyozlar va preferensiyalar qo‘llanishi qonunchilikda belgilangan tartiblarda amalga oshirilishi mumkin.

* O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Davlatga tegishli suv havzalarini tadbirkorlik subyektlariga “E-auksion” elektron savdo platformasi orqali ijaraga berish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 2023-yil 2-sentabrdagi 441-son qaroriga ham tatbiq etiladi.

Toshkent shahar hokimining
2025-yil 30-yanvardagi
54-14-0-Q/25-son qaroriga
2-ilova

**Toshkent shahridagi kichik sanoat zonalarida tadbirkorlik subyektlari tomonidan
2025-yilda foydalanganlik uchun to'lanadigan ijara to'lovi miqdorlari**

t/r	Ijaraga beriladigan maydonlardan foydalanish maqsadi	2025 yilda 1 kv.m. maydon uchun yillik eng kam ijara to'lovi stavkalari (QQS bilan birga)
Ishlab chiqarish		
1	Ishlab chiqarish turlari bo'yicha (kimyo, neft, mashinasozlik, hisoblash texnikalari, traktorsozlik, maishiy anjomlar, sanitariya, metall, tamaki, elektronika va santexnika mahsulotlari va jihozlari)	26 806
2	Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish	86 970
3	Elektr energiya ishlab chiqarish	24 500
Qurilish sanoati		
4	Qurilish mahsulotlari sanoati (asfalt, bitum, tosh saralash, shlakoblok, penablok, gazoblok, suvoq qorishmalari, gipsokarton, tunikafon, shifer, sement, senvich panel ishlab chiqarish va yog'ochni qayta ishlash)	26 806
5	Deraza, eshiklar va mebel ishlab chiqarish sanoati (yog'ochdan)	86 970
6	Deraza, eshik va mebellar ishlab chiqarish (plastik, alyumin va MDFdan)	114 660
Engil sanoat		
7	Yengil sanoat turlari bo'yicha (to'qimachilik, tikuvchilik, charm, mo'yna, poyabzal, sellyuloza-qog'oz sanoati)	26 806
Oziq-ovqat sanoati		
8	Sut mahsulotlari sanoati	53 625
9	Non va qolipli (bulka) non mahsulotlari ishlab chiqarish	89 895
Transport va aloqa		
10	Elektr-simli aloqa (WIFI Router)	70 096

11	Radio, uyali aloqa va peyjer aloqasi (inshootlarni hisobga olgan holda hudud doirasida)	227 331
Savdo va umumiy ovqatlanish		
12	Chakana savdo	161 837
13	Sotuvchisiz elektron uskunalar orqali chakana savdoni tashkil etish	159 800
Xizmat ko'rsatish		
14	Xizmat ko'rsatish turlari bo'yicha (xo'jalik buyumlarini ijaraga berish, nusxa ko'chirish, ko'chmas mulklar bilan bog'liq xizmatlar, reklama va ko'rgazmalar, geodeziya va gidrometeorologiya)	110 000
15	Maishiy xizmatning noishlab chiqarish turlari (veterinariya xizmatlari, kimyoviy tozalash va bo'yash, avtomobil, velosiped, samokatlarni ijaraga berish, paxta va jun tozalash va titish hamda ko'ngilochar qurilmalar joylashtirish)	59 800
16	Mashina va uskunalarni ta'mirlash	91 210
17	Loyiha, loyiha-qidiruv tashkilotlari	53 625
18	Poligrafiya sanoati	86 970
19	Quyosh panellari va suv isitish qurilmalar joylashtirish	19 900
Sog'liqni saqlash		
20	Tibbiy asbob uskunolari o'rnatish (massajlovchi stullar, MRT, UZI, MSKT, rentgen va boshqa qurilmalari)	183 100
21	Tibbiyot sanoati (Tibbiyot buyumlari, asbob uskunolari va dori vositalari ishlab chiqarish)	184 100
Sport maydonlari (stadionlar)		
22	Fitnes va yengil atletika zallari	189 000
Moliya-kredit faoliyati		
23	Buxgalteriya va soliq servis xizmatlari	168 100
24	Marketing tadqiqotlari, tijorat, moliya va boshqaruv faoliyatlari bo'yicha maslahatxonalar	107 835
25	Bankomatlar	1 621 438
26	Paynetlar	269 984

27	Turli xizmat turlari uchun to'lov qabul qilish maskanlari (kassalar)	269 984
28	Front-ofislar (Banklar uchun)	105 200
29	Bank xizmatlari ofisi	148 100
30	Sug'urta faoliyati	107 835
Faoliyatning boshqa turlari		
31	Omborxonalar	107 835
32	Davlat korxona va muassasalari	53 534
33	Xususiy tashkilotlarga ofis	183 612
34	Tahririyat va nashriyotlar	60 125
35	Metallolom va ikkilamchi qog'oz (latta) mahsulotlarini to'plash joylari	60 125
36	Laboratoriyalar	53 534

Izoh: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 9-martdagi 134-son qarori bilan tasdiqlangan "Kichik sanoat zonalari to'g'risidagi nizom" 46-bandiga asosan, kichik sanoat zonalari hududidagi davlat mulklari ijarasi uchun tuzilgan uzoq muddatli ijara shartnomasida, agar qonun hujjatlarida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, ijaraga olingan maydonda amalga oshiriladigan faoliyat turidan kelib chiqib, tegishli koeffitsiyentlarni qo'llamagan holda ishlab chiqarish maydonlaridan foydalanganlik uchun ijara to'lovining eng kam stavkasi belgilanadi.

Ijara to'lovini (ijara to'lovining tayanch stavkasini) hisoblab chiqish tartibi va qo'llanadigan koeffitsiyentlar

Binolar va inshootlar bo'yicha ijara to'lovini (ijara to'lovining tayanch stavkasi) hisoblab chiqish quyidagi tarzda aniqlanadi:

$$Ts=Es*Kz*(Kq+Kh+Ko),$$

bunda:

Ts - bir yilga bir kv. metr uchun ijara to'lovining tayanch stavkasi; (eng kam miqdori)

Es – bir yilga bir kv. metr uchun eng kam stavka;

Kz – hududiy zona koeffitsiyenti;

Kq – qurilish turi bo'yicha koeffitsiyent (alohida turgan bino, qo'shimcha qurilgan bino, binoning yuqori qismi, cherdak, boloxona, yarim yerto'la, yerto'la);

Kh – tutashib ketgan hududdan foydalanish koeffitsiyenti;

Ko – tijorat maqsadlarida foydalanishda qulaylik koeffitsiyenti (asosiy avtotransport yo'llari bo'ylab joylashish, ikkinchi darajali avtotransport yo'llariga chiqishda joylashish va boshqalar).

Ijara haqi stavkalariga qo'llaniladigan koeffitsiyentlar:

1. Toshkent shahar hokimining “Yer solig'i to'lash stavkasi bo'yicha zona chegaralarining sxemasi va tavsiflarini tasdiqlash haqida” 2023-yil 3-martdagi 159-14-0-Q/23-son qarorida belgilangan chegaralarga asosan hududiy zonalar koeffitsiyentlari (Kz):

Zonalar	Qo'llaniladigan koeffitsiyentlar
1-zona	5,20
2- zona	4,19

3- zona	3,18
4- zona	2,17
5- zona	1,26

2. Binoning qurilish turi bo'yicha koeffitsiyentlar (Kq):

Qurilish turi	Qo'llaniladigan koeffitsiyentlar
alohida turgan bino	1,0
binoning qismida joylashgan va/yoki taqab qurilgan	0,8
yarim yerto'la, yerto'la	0,6
cherdak, boloxona	0,5
reklama vositalari uchun bino va inshootning fasad qismi	0,2

3. Tutashib ketgan hududdan foydalanish koeffitsiyenti (Kh):

	Qo'llaniladigan koeffitsiyent
yer maydoni mavjud bo'lganda	0,3

4. Tijorat maqsadida foydalanishda qulaylik koeffitsiyenti (Kt):

Qulaylik	Qo'llaniladigan koeffitsiyent
metro stansiyasidan 200 metr radius oralig'ida joylashgan	0,8
markaziy qatnov ko'chalarida joylashgan bino-inshootlar	0,7
ikkinchi darajali qatnov ko'chalarida joylashgan	0,6

Toshkent shahar hokimining
2025-yil 30-yanvardagi
54-14-0-Q/25-son qaroriga
4-ilova

Toshkent shahridagi markaziy qatnov ko'chalari ro'yxati

1. Abdulla Qodiriy ko'chasi
2. Abdurauf Fitrat ko'chasi
3. Abay ko'chasi
4. Amir Temur shoh ko'chasi
5. Asaka ko'chasi
6. Afrosiyob ko'chasi
7. Ahmad Donish ko'chasi
8. Aeroport hududi
9. Beruniy ko'chasi
10. Beshyog'och ko'chasi
11. Beshqayrag'och ko'chasi
12. Bobur ko'chasi
13. Bog'ishamol ko'chasi
14. Bodomzor yo'li ko'chasi
15. Bunyodkor shoh ko'chasi
16. Buxoro ko'chasi
17. Buyuk Ipak yo'li ko'chasi
18. Buyuk Turon ko'chasi
19. Gavhar ko'chasi
20. Darxon ko'chasi
21. Do'rmon yo'li ko'chasi
22. Zarafshon ko'chasi
23. Zargarlik ko'chasi
24. Zargaynar ko'chasi
25. Ziyo ko'chasi
26. Ziyolilar ko'chasi
27. Zulfiyaxonim ko'chasi
28. Islom Karimov ko'chasi

29. Istiqbol ko'chasi
30. Istiqlol kuchasi
31. Iftixor ko'chasi
32. Qatortol ko'chasi
33. Katta Xirmontepa ko'chasi
34. Kichik halqa yo'li ko'chasi
35. Qorasaroy ko'chasi
36. Qorasuv ko'chasi
37. Qoratosh ko'chasi
38. Qumariq ko'chasi
39. Ko'kcha Darvoza ko'chasi
40. Labzak ko'chasi
41. Lokomotiv ko'chasi
42. Lutfiy ko'chasi
43. Matbuotchilar ko'chasi
44. Mahtumquli ko'chasi
45. Mirzo Ulug'bek ko'chasi
46. Mirobod ko'chasi
47. Muqimiy ko'chasi
48. Mustaqillik maydoni
49. Mustaqillik shoh ko'chasi
50. Muhammad Yusuf ko'chasi
51. Muxtor Ashrafiy ko'chasi
52. Navoiy ko'chasi
53. Nazarbek ko'chasi
54. Nukus ko'chasi
55. Nurafshon ko'chasi
56. Oybek ko'chasi
57. Oqqo'rg'on ko'chasi
58. Oqtepa maydoni
59. Olmazor ko'chasi
60. Osiyo ko'chasi
61. Ohangaron ko'chasi
62. Parkent ko'chasi
63. Sag'bon ko'chasi
64. Samarqand Darvoza ko'chasi

65. Sebzor ko'chasi
66. Sodiq Azimov ko'chasi
67. Talabalar ko'chasi
68. Taras Shevchenko ko'chasi
69. Temur Malik ko'chasi
70. Turkiston ko'chasi
71. Usta Shirin ko'chasi
72. Farg'ona yo'li ko'chasi
73. Farobiy ko'chasi
74. Farhod ko'chasi
75. Fidokor ko'chasi
76. Furqat ko'chasi
77. Chilonzor ko'chasi
78. Choshtepa ko'chasi
79. Cho'ponota ko'chasi
80. Sharof Rashidov ko'chasi
81. Shastri ko'chasi
82. Shahrisabz ko'chasi
83. Shimoliy Olmazor ko'chasi
84. Shota Rustaveli ko'chasi
85. Sho'rtepa ko'chasi
86. Yunus Rajabiy ko'chasi
87. Yangi Sergeli ko'chasi
88. Yangi Yunusobod ko'chasi
89. Yangishahar ko'chasi
90. Yahyo G'ulomov ko'chasi
91. Mirzo Tursunzoda ko'chasi
92. Yangi Sergeli ko'chasi
93. Qo'rg'ontepa ko'chasi
94. Shokir ariq ko'chasi
95. Qipchoq ko'chasi
96. Toshkent halqa aylanma yo'li
ko'chasi